

COMPARATIVE ANALYSIS OF UZBEK TRANSLATIONS OF THE HOLY QUR'AN

Numanov Ziyodbek Bahodirjonovich

Master of the International Islamic Academy of Uzbekistan

ANNOTATION

Tafsir of the Holy Quran in this article “Translation and commentary of the meanings of Al-Qur'an al-Karim” by Altynkhan Tora, “Tafsiri hilal” by Sheikh Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf, “Qur'an by Mutallib Usmanov oni karim. Translation and Scientific-Historical Commentaries” and other sources that are important sources in “Quranic Studies” and “Islamic Studies”.

Keywords: Quran, tafsir, verses, Islam, verse, Sheikh.

INTRODUCTION

Mustaqillik yillarida yurtimizda 8 ta tarjima tafsirlar hozirgi kunga kelib esa 10 dan ziyod Qur'oni karim tafsirlari yozilgan. Jumladan, “Al-Qur'on al-karim ma'nolari tarjimasini va sharhlar” asari Oltinxon To'ra tomonidan 1375/1956 yil 15 aprelda Saudiya Arabistonining Madina shahrida yozilgan. Asarni arab alifbosidan o'zbek alifbosiga to'liq o'zgartirshlarsiz o'g'irgan va nashrga tayyorlovchi Hoji Ismatulloh Abdulloh, asarga Shayx Abdulaziz Mansur taqriz yozgan. Asar 681 sahifadan iborat. So'nggi suradan so'ng, Rim raqamlari bilan belgilangan sahifalarda, oyatlar ko'rsatkichi mavjud bo'lib, unda biror mavzudagi oyatni qaysi suradan topish mumkinligi haqida va ba'zi so'zlarga izohlar berilib lug'at tuzilgan. Lug'atlarni Hoji Ismatulloh izohlagan.

Asarni tarkibiy tuzilishini quyidagicha tasniflash mumkin:

- Muallifning kirish so'zi;
- Qur'oni karim tarjimalari va tafsirlari haqida;
- Oltinxon To'ra va uning tarjimasini haqida;
- Qur'onning to'liqligicha ma'nolar tarjimasini;
- Oyatlarning mavzular bo'yicha ko'rsatkichlari;
- Tushunarsiz so'zlarning izohlari;
- Mundarija;

Asar o'lchami 19/25 sm. 15/20 sm qismiga matnlar yozilgan. Qur'oni karimni tarjima qilingan matnlari asarning beshinchi sahifasidan boshlangan. E'tiborli jihati kitobda faqat tarjima berilgan. Buning sababini Hoji Ismatulloh shunday izohlaydi: “Juda ko'pchilik Qur'onning arab tilidagi manlarini hozirgi o'zbek imlosida yozishni talab qilmodalar. Ammo bir narsani unutmaslik kerakki, arab tili imlosida uchta “s”, uchta “h”, ikkita “t” harflari bor. O'zbek tilida esa bu harflar bir harf bilan ifodalanadi. Bunda Qur'onning ma'nolari o'zgarib ketishi mumkin...”. Asarning nashr haqida Hamidulla Karomatov qiziq ma'lumotni keltiradi: “Bu tarjima-tafsir 1955 yili Bombeyda, 1975 yili Pokistonda, 1980 yili Duhada, 1981 yili Jiddada, 1990 yili Istambulda nashr etilgan.” Lekin asarning 2002 yildagi ikkinchi nashrida asar 1956 yilda tugatilgani haqida ma'lumot berilgan va Bombeydagi nashrni ham 1956 yil deb

ta'kidlangan. Shundan kelib chiqib, asarni 1956 yil tamomlangani haqiqatga yaqinroq deyish mumkin.

Har bir sura tarjimasiga kirishishdan oldin u qayerda nozil bo'lgani va u haqda umumiy ma'lumot beriladi. So'ng suraning arabcha nomini o'zbek alifbosida yozib uning tarjimsini qavs ichida berib ketiladi. Bundan tashqari, agar suraning ikkita nomi bo'lsa, ikkisini ham berib ketadi. Masalan, *“Lahab yoki Masad (Xurmo postlog'i) surasi”*. Tatjima arab tilida gap tuzulishi qanday bo'lsa shundayligicha saqlab qolishga harakat qilingan. Oyating avvalidagi so'z o'zbek tilida qanday ma'no anglatgansa tarjima shu so'z bilan boshlanadi. Tarjima izohga hojat sezsa tarjimadan so'ng izohlar berilib ketiladi. Izoh berishda boshqalardan farqli ravishda snoska shaklida emas, balki tarjimaning o'zidan keyingina izoh beriladi. Bu albatta kitobxonga qulayliklar tug'dirishi bilan birga, uni hayolini chalg'itishga ham olib kelishi mumkin.

O'zbekcha tarjimalarni tahlil qilishda davom etamiz. Navbat mustaqillikning ilk yillarida qism qism bo'lib, keyinchalik to'liq shaklda nashrdan chiqqan “Tafsiri hilol” asaridir. Asar 6 jildan iborat. Shu bilan birga, alohida bir jildi ham borki, unda faqat ma'nolar tarjimasini berilgan. Olim mazkur asar tafsirini yozish sababini quyidagicha yozadi: “Ko'pchilikning iltimoslariga, shu jumladan, Makkai Mukarramadagi “Islom olami uyushmasi” rahbarlari va xususan hurmatli Rahmatulloh Inoyatulloh Turkistoniyning tavsiyalari bo'yicha, hech bo'lmasa Qur'oni karimning hamma yod oladigan suralar o'rin olgan 30-porasini tafsir qilishni o'ylab yurardim. Alloh imkoniyat berishi bilan bunga qo'l urdik.” Mazkur tafsir haqida Hamidulla Karomatov o'zining doktorlik dissertatsiyasida: “1992 yili Muhammad Sodik Muhammad Yusuf kema-ket 28, 29 va 30 poralar tarjimasini “Tafsiri hilol” deb nashr etadi. Mazkur tarjima o'z tuzulish jihatidan na'muna bo'la oladi.” – deb uning boshqa tarjimalardan afzal ekanini ta'kidlaydi.

Asarning 30-porasi ilk bor 1991 yili O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi nashriyatida chop etildi. Keyingi yillarda 26, 27, 28, 29-poralari ham nashr etildi. 2006 yilda esa asar yahlit holatda ya'ni, Qur'oni karimning 30 porasi to'liq tarjima va tafsir qilinib nashr etilgan bo'lib, 2009 yilda ikkinchi bor qayta chop etildi. Ko'p jildli bu asarni tarkibiy tuzulishini quyidagicha tasnif qilish mumkin:

-Muqaddima. Bunda Qur'on tarixi, uni tarqoq holda tushishining hikmatlari kabi mavzulari keng yoritilgan;

-Qur'oni karimning to'liq tarjima va tafsiri;

-Xotima;

-Foydalanilgan manbalar ro'yhati;

Asar hozirgi o'zbek tilida yozilgan bo'lib, uning qoidalariga qattiq amal qilingan. Bu haqda mullifning o'zi shunday deydi: “Gap tuzulishi ham hozirgi o'zbek adabiy tiliga to'liq mos keladi. “So'ngra oyating ma'nosini iloji boricha sodda qilib o'zbekcha qilishga harakat qildik...”

Asarga arabcha matn ham kiritilgan. Tarjimaga kirishishdan oldin sura haqida qisqacha ma'lumot beriladi. Asarning 1991 yildagi nashrida oyatlarning o'zbek tili alifbosidagi variatnti ham berilgan. Lekin to'liq shaklidagi keyingi nashrlarda bu jihat kuzatilmaydi. Bu tarjimada ham “أعوذ بالله من الشيطان الرجيم” jumlasini boshqalarda uchramaydigan jumla bilan tarjima qilingan. uning tarjimasini: “Quvilgan la'nati Shayton yomonligidan Alloh panohini so'rayman.” Oyating arabcha matnidan so'ng uning ma'nosi, keyin esa tafsiri keltiriladi. Asarni tuzilish tartibida Ibn Kasir uslubidan foydalanilgan. Oyatlarga tegishli hadislar va rivoyatlar bo'lsa uni hujjati

bilan keltirilgan. Uni yana bir jihati shuki, tafsirdan so'ng uning hukmi hanafiy mazhabi bo'yicha hukm qanday bo'lishi haqida ham ma'lumot beriladi va boshqa mazhablar bilan qiyoslab ketiladi. Ba'zi qavmlar haqidagi oyatlardan so'ng o'sha qavm haqida muxtasar ma'lumotlar berib ketilgan bo'lib, bu kitobxonni bilimni yanada boyitadi. Tafsirda snoskalardan foydalanilmagan.

Asarda oyatlarga tegishli bo'lgan boshqa mavzularga to'xtalmagan. Buning muallifning o'zi quyidagicha izohlaydi: "O'quvchilarning e'tiborini Qur'oni karim mantnidan chetlaydigan ma'lumotlarni zikr qilmaslikka harakat qildik. Misol uchun Alloh osmonni bekami ko'st yaratib qo'ygani haqidagi oyat tafsirida osmon haqida ma'lumotlarni ko'p keltirish mumkin. Lekin o'quvchilar bu ma'lumotlarni boshqa manbalardan o'qib olishar degan fikrga keldik."

Keyingi tarjima Mutallib Usmonov qalamiga mansub "Qur'oni karim. Tarjima va ilmiy-tarixiy izohlar" asaridir. Asar 1992 yilda yozib tamomlangan bo'lsada, uni nashri 2004 yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining "Fan" nashriyotida chop etilgan. Asar 366 sahifani tashkil qiladi, Qur'oni karim tarjimasi 69 sahifadan boshlangan. Sahifalar 18/27 sm bo'lib, uni 11/18 sm qismiga arabcha matn va tarjima yozilgan. Qolgan qismi kitobni bezagan naqshlar va izohlar to'ldirgan. Uni mualliflar guruhi tomonida yozilgan bo'lsada, asar Mutallib Usmonovga nisbat beriladi. Mualliflar guruhi: Mutallib Usmonov – bosh tarjimon. Kirish so'zi va 1-3 suralar. Abdusodiq Irisov – 4-9 suralar. Hoji Ismatullo Abdullo – 10- 16 suralar. Ubaydulla Uvvatov – 17 sura.

Asarning tarkibiy tuzulishi:

- Asarga yozilgan taqriz. Taqrizni O'z FA akademigi Nematillo Ibrohimov;
- Kirish. Unda uch fasldan iborat, har bir faslda uchtadan bob mavjud. Bu fasllarda, xalqlar va yozuvlar tarixi, islom tarixi, Muhammad payg'ambar faoliyatlari, Qur'on tarixi haqida qimmatli ma'lumotlar muxtasar qilib berilgan;
- Qur'oni karimning 15 porasi ya'ni, 1-17 suralar to'liq tarjimasi;

Asarda Qur'onning asl matni ham berilgan. Bu haqda muallif shunday yozadi: "Kitobxonlar uchun tarjimadan foydalanishni hamda lozim bo'lgan hollarada arabcha mantni qiyoslashni yengillashtirish niyatida tarjima bilan arabcha matni teng berib borilgan va bunda Saudiya Arabistonning Madinai Munavvada hijriy 1405 (milodiy 1984-1985) yilda nashr qilingan Qur'on matnidan foydalanilgan."

Tarjimada takrordan qochishga harakat qilingan. Masalan, "Ra'd" suraning avvalgi oyatini Abulaziz Mansur: "Alif. Lom. Mim. Ro. Ushbu (sura oyatlari) Kitob (Qur'on) oyatlaridir.", Alouddin Mansur: "Alif. Lom. Mim. Ro. Ushbu (oyatlar) Kitob (Qur'on) oyatlaridir.", biz o'rganayotgan asarda esa: "Alif. Lom. Mim. Ro. Bu – Kitobning oyatlaridir." deb tarjima qilingan va takrordan saqlanilgan. Bu esa tarjimonning tarjima sohasida tarjibasi anchayin yuqori bo'lganini bildiradi. Asarni bir jihat boshqalardan ajralib turadi.

Oyatlar tarjimasi o'z o'rnida berib ketilib, agar tarjima izohga hojat sezsa snoska shaklida sahifaning quyi qismida berib ketilgan. Bu esa kitobxonni hayolini bo'linishini oldini oladi. Asardan nafaqat tarjima sifatida balki uni, islomshunoslik, dinlar tarixi, xalqlar tarixi va yozuvlar tarixi kabi fanlarda ham manba sifatida ko'rsatish mumkin. Kelajakda bu olimlarimiz asarning qolgan qismini ham kitobxonlarni bahramand qiladilar degan umiddamiz.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Karomatov H. O'zbek adabiyoti va Qur'on mavzulari. Fil.fan.dok....dissert. –T.: 1993.
2. Shayx Alouddin Mansur. Qur'oni karim. O'zbekcha izohli tarjima. –T.: Cho'lpon nashriyoti, 2001.
3. Obidov R. O'rta Osiyo olimlarining tafsir sohasidagi xizmatlari. –T.: Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi, 2009.
4. Mansurov A. Qur'oni karim ma'nolarining tarjimasi va tafsiri. –T.: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2001.
5. Sayyid Mahmud ibn Sayyid Nazir at-Taroziy Oltinxon To'ra. Al-Qur'on al-karim ma'nolarining tarjimasi va sharhlar. –T.: Fan, 2002 –B.1.